



## ROMANDA XARAKTERLAR TALQINI

**Abdullayev Xamro Dauletbayevich,**  
*Berdaq nomidagi QDU., o'zbek adabiyoti kafedrası, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Evril Turon (Mamadali Mahmudov) ning "Bu tog'lar ulug' tog'lar" romani tahlil obyekti sifatida olingan. Bunda yozuvchining xarakter yaratish mahorati, qahramonlar xarakteri va ularning roman syujetidagi o'rni masalasi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Roman, qahramon, obraz, personaj, xarakter, badiiy mahorat, kompozitsiya, syujet, uslub, "ziddiyatli uchlik" uslubi.

**Аннотация.** В данной статье в качестве объекта анализа взят роман Эврил Турон (Мамадали Махмудов) «Бу тоғлар улуг тоғлар». В ней говорится об умении писателя создать характер, характере героев и их месте в сюжете романа.

**Ключевые слова:** Роман, герой, образ, персонаж, характер, художественное мастерство, композиция, сюжет, стиль, стиль «конфликтующее трио».

**Abstract.** In this article, the novel "Bu tog'lar ulug' tog'lar" by Evril Turon (Mamadali Mahmudov) is taken as an object of analysis. It talks about the writer's ability to create a character, the character of the characters and their place in the plot of the novel.

**Key words:** Novel, hero, image, character, character, artistic skill, composition, plot, style, "conflicting trio" style.

### KIRISH.

Jamiyatning ma'naviy-axloqiy hayotida ayol-ona mavqei nihoyatda katta o'rin tutadi. Bugungi turmushimizda ijtimoiy mehnat jarayonining barcha jabhalarida ayollar o'zlarining ruhiy irodasini, bilim saviyasini va butun imkoniyatini namoyish etmoqdalar. Yangi o'zbek adabiyotida ayol va jamiyat, uning ijtimoiy hayotdagi faolligi, ona va oila, ayolning inson sifatidagi orzu-armonlari, dardu-alamlari, muammolari, ruhiyatidagi turfa o'zgarishlar singari masalalar tasvirning asosiy konseptual yo'nalishini tashkil etadi.

Inson – badiiy adabiyotning tasvir va ifoda obyekti ekan, uning ruhiyati tasvirisiz adabiyotni yaxlit, bir butun holatda to'liq tasavur etib bo'lmaydi. Demak, har qanday badiiy asarda, u qachon va qaysi janr, qay yo'sinda yaratilgan bo'lmasin, unda inson ruhiyati, kechinmalari, albatta, aks etgan bo'ladi.

"Hozirgi adabiyotda voqelikni tasvirlashga qaraganda inson ruhiyatini tahlil qilishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Bugungi adiblar uchun hayotiy reallik birlamchi ahamiyat kasb etmaydi. Bunga badiiy reallikni ta'minlash vositasi debgina qaraladi. Bugun badiiy asar qiziqarli voqealar tasviridan emas, balki inson ko'nglining mikrotahlilidan iboratdir. Har bir inson olam va odamiyatni o'zini anglar darajadagina anglay oladi"<sup>1</sup>. Davrlar almashinuvi mobaynida adabiyotdagi mavzular

<sup>1</sup> Бўрихон Луқмон.Жазирамадаги одамлар (роман). –Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. –324 б



ko‘lami rang-baranglik kasb etib borsa-da, uning asosiy ob‘yekti bo‘lgan inson obrazi hamma vaqt ham mana shu mavzularning asosiy maqsadi bo‘lib kelmoqda. Darhaqiqat, har qanday siyosiy tazyiq, ijtimoiy yangilanish bo‘lmasin, har bir badiiy asarning markazida inson, uning taqdiri, kechinmalari, orzu-armonlari u yoki bu tarzda tahlilga tortilib kelinmoqda.

“So‘nggi yillar o‘zbek adabiyoti, xususan, hikoyachiligida insonning ichki dunyosi tadqiq etilgan asarlar salmog‘i oshib, turmushni mafkura yo‘rig‘iga muvofiq talqin etish barham topmoqda. Alohida olingan odamni ulkan bir olam sifatida ko‘rsatish adabiyotimizning yetakchi tamoyiliga aylandi. Endilikda nafaqat, an‘anaviy yo‘nalishda, balki shakl-shamoyili, ifoda tarzi, obrazlar dunyosi, mazmun mundariyasi mutlaqo yangicha bo‘lgan asarlar yaratilmoqda. Aytish mumkinki, adabiyotimizning shakl mazmun, uslub ko‘rinishlari, badiiy-falsafiy tadqiq qilish tamoyillari yangilandi. Tasvir quyuqlashib, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyoslari, ifoda tarzida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi”.<sup>2</sup>

## METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.

O‘zbek adabiyotshunosligida inson ruhiyati masalasi 1960-yillardan boshlab tadqiqotlar predmeti sifatida o‘rganila boshlandi. Shunda ham konseptual fundamental tadqiqotlar olib borilmadi. Faqatgina obrazlar va xarakterlar ruhiyati nuqtai nazaridan yondashilib,<sup>3</sup> alohida poetik muammo tarzida o‘rganilmagan. 1970-yillarda psixologizm alohida muammo sifatida o‘rganilib, bir qancha tadqiqotlar yaratildi.<sup>4</sup> Bundan tashqari Bahodir Sarimsoqovning “Dostonlarda psixologik tasvirning xarakteri haqida ba‘zi mulohazalar” kitobi yuzaga keldi. Unda ham Po‘lkan shoir, u kuylagan dostonlardagi tasvir vositalarining psixologik funksiyalari xususida fikr-mulohazalar yuritilgan, xolos. Adabiyotshunos H.Umurov mazkur masalaga jiddiy yondashib “O‘zbek romanchiligida badiiy psixologizm”(1982-yil), “Qahramonning ma‘naviy olami va epiklik”(1995-yil) singari tadqiqotlarini yaratadi.

Maqolamizning obyekti bo‘lgan Evril Turon(Mamadali Mahmudov)ning “Bu tog‘lar ulug‘ tog‘lar” romanida ham qahramonlar ruhiyati va psixologizm masalasi tasvirning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Chunki romanda voqelik tasviridan ko‘ra, xarakterlar tasviri, ya‘ni ong oqimi va his-tuyg‘ular ifodasi ustun turadi. Asarda ushbu tasvir va ifoda uslubi bo‘rtib ko‘rinib turadi. Yozuvchi hayotiy real voqealarni kuzatadi, u haqida xayol yuritadi, xayol og‘ushida reallik tug‘iladi. Chunki ongda va

<sup>2</sup> Ёқубов И. Бадий эстетик сўз. –Тошкент,2011. 256-257 betlar

<sup>3</sup> Qo‘shjonov M. Hayot va mahorat. Toshkent, 1962

Qo‘shjonov M. Qodiriyning tasvirlash san‘ati. Toshkent 1966

Qo‘shjonov M, Normatov U. Mahorat sirlari. Toshkent 1968

<sup>4</sup> Shermuhammedov M. Ruhiiy dunyo ko‘zgusi. Toshkent 1971.

Шодиев Н. Мастерство психологического анализа Абдуллы Каххораю А.К.Д. Тошкент 1973.

Абдурахмонова М. Мастерство психологического изображения в творчестве Абдуллы Кадыри. Тошкент 1977



qallda kechayotgan tasavvur va xayollar ham muayyan vaziyatda reallikning in'ikosidir.

“Barcha kishilarga joriy qilinadigan axloqiy talab shu vaqtda burch formasiga kiradiki, bu talab muayyan individning tutgan mavqeiga va biron bir konkret vaziyatga tatbiqan uning shaxsiy vazifasiga aylanadi. Shaxs bunda axloqning faol subyekt sifatida maydonga chiqadi va uning o‘zi anglab tushungan holda, o‘z faoliyati bilan axloqiy talablarni amalga oshiradi”.<sup>5</sup>

Mazkur falsafiy, axloqiy mulohazalar “Bu tog‘lar ulug‘ tog‘lar” romanida o‘zining badiiy in'ikosini topgani holda, bir paytning o‘zida insoniy tafsilotlar sintezi bilan ifodalanadi. Romanda o‘ziga xos tarzda ham falsafiy, ham axloqiy, ham huquqiy masala hisoblangan erk va burch muammosi o‘zining butun murakkabligi va ziddiyati bilan o‘rtaga qo‘yilgan.

## TADQIQOT NATIJALARI.

Asar syujeti voqealar ketma-ketligidan emas, balki turli-tuman taqdirlar, xarakterlar tutashuvining badiiy olamdagi in'ikosidan iboratdek. Romandagi Rahmat polvon asarda ko‘proq ota va adolat timsoli tarzida namoyon bo‘ladi. Romanda milliy va umumbashariy qadriyatlardan tashqari illatlar ham o‘z aksini topgan. Asarda qadriyatlar va illatlar kontrast usulda tasvirlanadi. U o‘z kelini Rayhonning Mirzabek bilan aloqasi borligini his qilardi. Ammo, qo‘lga tushira olmay yurgan edi. Izg‘irinli sovuq kunlarning birida:

“Mirza qing‘ir: «Ha, mayli, bormasalar bormanglar, bari-bir Chernay yengadi, baribir xatimiz ish beradi...» deb qo‘yaqoldi. Shundan keyin uning qalbi mash‘um quvonch ila Rayhon tomon talpina boshladi. Ammo u mulohazali, tadbirkor kishi edi:

«Balki, polvon xo‘jako‘rsinga urushga ketgandir, deb o‘yladi, - balki, yarim yo‘ldan qaytar. Axir, bu la‘nati chol ko‘pdan izimga tushib yuribti-da.

Kutilmaganda Rahmat polvon Chimqo‘rg‘ondan iziga qaytdi va O‘rdatoshning sharq tomonidagi Teshiktosh g‘orida yashab turdi:

«Shubha-gumonlarim noto‘g‘riga o‘xshaydi, dedi o‘z-o‘ziga, - Rahim cho‘pon ham shunchaki qo‘shib aytgandir. Xazina polchiyam og‘ziga kelganini valdiragandir. Qariganimda itdek poyloqchilik qilishim uyat, uyat ham pastkashlikdir! Buni birov sezsa bormi, sharmanda bo‘laman. Erkak kishiga to‘g‘ri kelmaydigan ish qilayotirmanda o‘zi! Qandoq tubanlik! Tongda uyga boraman!»

<sup>5</sup> Filosofiya lug‘ati. “O‘zbekiston”, Toshkent, 1976-yil, 80-bet.



Tun o'rtalarida uning tishi-tishiga tegmay taqillay boshladi. «Chidayman!- deb xayolidan o'tkazdi polvon, hoynahoy shubha kasaliga yo'liqqanga o'xshayman. Bo'lmasa tun zulmatida bundoq tentirab yurmasdim. Eh, qandoq tubanman!!!!

Polvon po'stinining yon cho'ntagidan nos olib otarkan: «Ish qilib muzlab qolmasam go'rgaydi, - dedi, tag'in ozgina sabr qilaman!»

«Ozgina sabr qildi. Yana ozgina!.. Yana!.. Shunda, u nogohon yirtqich hayvondek o'kirayotgan bo'ron aro, kurtaklar aro sudralib kelayotgan bir maxluqqa ko'zi tushdi. Ha, ha, avval shunday deb o'yladi. Keyin uning odamligiga, keyin esa Mirzabek ekanligiga ishondi, ro'y-rost ishondi. «Mirzabek?» Nomusdan titrab ketdi, u. Yo, xudo, birdan azoyi-badani terga botdi. Nafasi qaytib ketdi. Po'stinini yechib tashladi. Tomog'ida, ikki jag'ida yong'oqsimon soqqalar o'ynay boshladi. Ko'zlariga qon quyildi. Tishlari g'ijiray boshladi. Biroq o'rnidan sapchib turib ketmadi. O'zini-o'zi tushinib yetmagan qandaydir g'ayri tabiiy iroda bilan bosdi. Kutdi. Rayhonning xira yorishib turgan derazasidan ko'z uzmay kutdi. Avval u: «Yolg'iz o'zi... Shunga qo'rqqanidan sham yoqib qo'ygan, - deb o'ylagan edi. Endi esa, — o'ynashini kutish uchun yoqib qo'ygan ekan, - deb o'yladi,

- Yo, Tangrim! Mening sezgilarim, shubha-gumonlarim oxir oqibat rost chiqdi! Ye, Tangrim! Qandoq dahshat, bu! Nechun shunday razillarni yer yutib yubormaydi?! Nechun?!»

Mirzabek ko'zdan o'chdi. Rahmat polvon gazabdan dag'-dan titrab, o'rnidan turdi. U qo'liga to'pponcha olib, ajdohodek to'lg'onib, deraza oldiga bordi. Shunda polvon tasir-tusur aro Rayhonning chinqirib yig'layotganini eshitdi. «Mochagar!», - dedi ichida beqiyos nafrat bilan va derazani tepib sindirib, ichkariga uchib kirdi. Yuz-ko'zlarini oyna tilib, kesib yuborganini ham sezmedi.

Shu tobda dunyoda undan qo'rqinchliroq, undan yovuzroq jonzot yo'q edi. Yo alhazar! Bu mash'um qiyofani ko'rishlari bilan tungi kiyimi pora-pora bo'lib ketgan Rayhon ham, ko'zlari chaqchaygan Mirzabek ham chinqirib yuborishdi va murdadek qotib qolishdi. Shu onda, balki, bu ikki kimsa hushidan ketishgandir, balki yuraklari yorilib, o'lib qolishgandir. Hozir bu haqida Rahmat polvon o'ylamasdi. O'ylolmasdi! Polvon benihoya quturib ketgandi. U qilichini g'ilofidan shart sug'irib, beqiyos g'azab, beqiyos nafrat bilan Mirzabekning yuziga tupurdi. So'ng:

Erkaklik xayf!!! — deya uning mijozini shart chopib tashladi. Mirza qing'ir qimir etmadi. Qon tirqirab otilib, o'zini, to'shakni, ham Rayhonni bulg'amoqda edi. Keyin u sochlari sochilib yotgan Rayxonning g'am, nomus, qo'rquv ifodalari toshdek qotib qolgan mas'um chehrasiga mislsiz ijirg'anish bilan tupurdi va:



Ayollik xayf!!! — deya shoʻrlikning soʻlim siynasiga qilich urdi. Qon tizillab otila boshladi. Shundagina polvonning yelkasidan togʻ agʻdarilgandek boʻldi<sup>6</sup>.

Tortishib oʻtirishining foydasi yoʻq edi: xiyonatni koʻpincha ayollar afv etadi, biroq erkakning, ayniqsa, ota fitratida nima borki, kechirishi mahol?... Roman boshida Rahmat polvonga turk erkaklarga xos tavsif berilgan edi. Oʻsha taʼrifdagi “yovuzlik” mazkur voqeada oʻz aksini topadi. Polvon xiyonatkor doʻstni va xiyonatkor kelinini chopib tashladi.

Romanda yozuvchi biron bir obrazga yoki voqelar tasviriga ijobiy yondashuv qilmaydi. Balki, uning obrazlari shu kabi savollarga javob izlaydi. Yozuvchi qidirgan, izlagan narsa har qanday moddiylikdan, ijtimoiy munosabatlardan yuqori turadi.

Romanda “ziddiyatli uchlik” uslubi qoʻllanilgan. Albatta, bu uchlik ziddiyati “Oʻtkan kunlar” romanidagidan tubdan farq qiladi. Asar qahramoni Boʻronbek oilali(xotini Rayhon) boʻlsada, farzandsiz. Doʻsti Mirzabekni(qozi) xotini boʻlsada, doʻsti Boʻronbekni xotiniga koʻz olaytiradi, xiyonat qiladi. Bu uchlik ziddiyati real hayotda ham, epik badiiy tafakkurda ham, shuningdek, hozirgi adabiy jarayonda ham koʻp uchrab turadigan hodisa. Xoʻp uchlik ziddiyati nima?

“Maʼlumki, ishq-muhabbatda, odatda, ikki kishi ishtirok etadi: yigit va qiz, yaʼni oshiq va maʼshuqaning sevgi mojarosiga uchinchi odam(erkak yoki ayol) aralshadiki, bu jahon adabiyotidagi koʻplab mumtoz asarlarda oʻzining yuksak badiiy ifodasini topgan. Xullas, shu tariqa sevgi-muhabbatda uchlik paydo boʻladi va u turli hayotiy ziddiyatlarning manbai boʻlib xizmat qiladi. Shu sababli, biz buni “ziddiyatli uchlik” deb atadik”.<sup>7</sup>

Ziddiyatli uchlik roman kompozitsiyasida ham asosiy oʻrin tutadi. Mirzabek sevib-mi, sevmaymi yoki yoshlikning ehtiroslarimi Shahribonu ismli qizga uylanadi. Aniqrogʻi, Shahribonu uni sevadi. Ikki nafar farzandi bor, baxtli oila edi. Uning ustiga jamiyatning kibarli va shariat himoyachisi edi. Quyidagi personaj nutqi va ichki monologda vaziyat yanada oydinlashadi:

“Assalomu aleykum. Otajon!

Enam, ini-singillarim, qarindosh-urugʻlar eson-omon yurishibdimi? Mendan hammasiga salom aytgaysiz.

Otajon! Tilim bormasa ham Siz azizga bir noxush xabarni aytishga nechogʻligʻ majbur ekanligimni sezarsiz degan umiddaman. Otajon, avvalo, shayton vasvasasi bilan bir xatolikka yoʻl qoʻygan kamina oʻgʻlingizni maʼzur tutishingizni oʻtunib soʻraymen.

<sup>6</sup> Evril Turon. Bu togʻlar-ulugʻ togʻlar. Yozuvchi nashriyoti, Toshkent, 1991, 156-157-betlar.(keyingi oʻrinlarda “oʻsha kitob” deb keltiriladi).

<sup>7</sup> Karimova Yu. “Oʻtkan kunlar” va “Erk” – ziddiyatli uchlik. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi. Toshkent, 2019-yil 11-aprel, 71-bet



Kaminaga mudarrisim Hoji A'loning e'tiqodi baland erdi. Ul zot meni vaqt-bevaqt o'z uylariga taklif etib turguvchi erdi. Shundoq kezlarda ul zotning pushtikamarlaridan bo'lgon qizi Shahribonuga ko'zim tushguvchi erdi....

So'ngra, shayton kaminani yo'ldan bir ozdirdikim, buni endi tuzatib bo'lmagay. Endi, bundan tonish ham qiyindir. Inchunin, Hoji A'lo eng nozik zotlar bilan qondosh-qarindosh.... Taqdiri azal ekan. Endi Shahribonuga uylanishdan boshqa choram qolmadi. Tashrif buyurib, shul mushkulni bir yoqlik qilib ketishingizni o'tinib so'raydurmen. Kelishingiz qancha tez bo'lsa, shuncha yaxshi bo'ladir. Uyatni ham bir yerga yig'ishtirib, shuni ma'lum etadurmenki, keliningiz bo'lmish Shahribonuning gumoni bordir. Bilaks, sizning aytgoningizni qilib, "Eroni qiz"ni nikohimga olmas erdim. Otajon, Siz azizni orziqib kutadirman. Bul tomonlar ham kaminani shunga da'vat etadirlar.

Sizni behad sog'ingan o'g'lingiz"(o'sha kitob 25-bet).

## BO'RONBEK ↔ RAYHON ← MIRZABEK

Romanda sevgi va oila muammosining yechimi yo'q, berilmagan. Zero, yozuvchining maqsadi bundan ko'ra buyukroq va yuksakroq edi. Yuzaki qaraganda yechimsizlikday ko'rinadi. "Lekin badiiy jihatdan – shuning o'zi ham yechim. Ya'ni, haqiqiy erkin bo'lsang, o'zing tanla, lekin tanloving shunday bo'lsinkim, yuksak nuqtada hech kimning erki toptalmasin. Erk shu qadarki, u hatto kitobxonga ham beriladi, u ham erkin. Marhamat, o'zingizga ma'qul yechimni tanlang", deydi go'yo muallif.

## XULOSALAR.

Evril Turon ijodini yoxud "Bu tog'lar ulug' tog'lar" romanini bir butun yaxlit tasavvur etmoqchi bo'lsangiz, unda bir narsa e'tiborimizni tortadi. Bu yozuvchi asarlarining butun vujudiga singdirib yuborilgan inson o'zligi, "erki" va ozodligi g'oyalaridir. Bu g'oyalar adibning barcha asarlarida bo'y ko'rsatib tursa-da, "Bu tog'lar ulug' tog'lar"da aniq badiiy maqsadni ko'zlab yetakchi mavqega ko'tarilgan. Yozuvchining nazdida inson tug'ilibdi-ki, hatto ona qornidayoq isyon bilan yashaydi. Chunki, u yaratganning eng suyakli va ongli mavjudotidir. Uning boshqacha yashashi mumkin emas. Inson isyondan itoatgacha bo'lgan yo'lni albatta, bosib o'tishi shart. Inson bo'lishlikning g'oyat mashaqatli yo'li, mana u – odamzod peshonasiga bitilgan qismat" – bu. "Isyoni yo'q qalbning itoati ham bo'lmag'ay.

Romanda ziddiyatli uchlik mavjud bo'lsa ham, yozuvchi voqealar rivojiga keskin dramatik tus bermaydi. Voqealar oxiridagi xarakterlar mantig'iga asosiy urg'u beriladi. Muammoga bir qadar sokinlik bilan yondashadi. Ammo, yozuvchi xiyonatkorlarning taqdirini ota(Rahmat polvon)ning qo'liga topshirdi. Romandagi



ayollar obrazi borasida shunday xulosaviy fikr aytish mumkinki, ularning hayotida ota-onani birlashtirib turadigan farzand bo'lmadi – bu esa oilaviy va fuqaroviy burch degan talab-zaruratni ehtiyojga aylantirmadi. Romanda inson erki nafaqat huquqiy va ma'naviy-axloqiy, balki g'oyaviy-badiiy muammo ham hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонова М. Мастерство психологического изображения в творчестве Абдуллы Кадыри. Тошкент 1977
2. Evril Turon. Bu tog'lar-ulug' tog'lar. Yozuvchi nashriyoti, Toshkent, 1991.
3. Filosofiya lug'ati. "O'zbekiston", Toshkent, 1976-yil, 80-bet.
4. Karimova Yu. "O'tkan kunlar" va "Erk" – ziddiyatli uchlik. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi. Toshkent, 2019-yil 11-aprel, 71-bet
5. Qo'shjonov M. Hayot va mahorat. Toshkent, 1962
6. Qo'shjonov M. Qodiriyning tasvirlash san'ati. Toshkent 1966
7. Qo'shjonov M, Normatov U. Mahorat sirlari. Toshkent 1968
8. Shermuhammedov M. Ruhiiy dunyo ko'zgusi. Toshkent 1971.
9. Шодиев Н. Мастерство психологического анализа Абдуллы Каххораю А.К.Д. Тошкент 1973.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934